Lekin amaliyotning ko'rsatishicha, boshqaruv sohasidagi innovatsiyalarga yetarlicha ahamiyat qaratilmagan holda korxonalar, tarmoqlar, hududlar va umuman milliy iqtisodiyot taraqqiyotini asosan texnik va texnologik innovatsiyalar bilan bog'lashadi. Ammo boshqaruv samaradorligiga faqatgina amaliyotga yangi asbob-uskunalar va texnikalarni joriy etish bilangina erishib bo'lmaydi. Fikrimizcha, zamonaviy boshqaruv usullari va texnologiyalardan samarali foydalanish tizimini joriy etish bundan kam bo'lmagan ahamiyat kasb etadi.

Menejment klassigi - ilmiy menejment asoschisi F.Teylor ta'kidlaganidek: "hatto eski jihozlar(asbob-uskunalar) bilan ham ishni yaxshi tashkil etish, yangi jihozlar bilan yomon tashkil etilganidan har doim yaxshi".

Har qanday faoliyatni yangilash va rivojlantirish avvalo, uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish hisobiga ro'y beradi. Shunday ekan, har qanday faoliyat yuritishning innovatsion strategiyasini aniqlovchi boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion konseptual yondashuvlarni joriy etish zarurati paydo bo'ladi. Boshqarish samaradorligini oshirish va uning faoliyatini yaxshilashning zamonaviy usullaridan



biri - bu Lean Production (Tejamkor ishlab chiqarish) konsepsiyasini joriy etish hisoblanadi. Jahon bozoridagi ko'pgina muvaffaqiyatli kompaniyalar o'zlarining yutuqlari va holatlarini ushbu yondashuv samaradorligi bilan namoyon etishmoqda.

Oxirgi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarda tejamkor ishlab chiqarish usuli keng qo'llanilib ommaviylashgan bo'lishiga qaramasdan bizning respublikamizda mazkur boshqaruv usulidan foydalanish talab darajasida emas yoki bo'lmasa u haqida aksariyat korxona va tashkilotlar umuman tasavvurga ham ega emas deyish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Lean Production (tejamkor ishlab chiqarish) konsepsiyasi yaponiyaning Toyota(Toyota) kompaniyasi menejmenti tamoyillariga asoslangan bo'lib, uning mohiyati yo'qotishlarning barcha turlarini bartaraf etish, ya'ni bunda asosiy g'oya- ishlab chiqarishni tashkil etishning maksimal darajada soddalashtirilishi va yo'qotishlarni bartaraf etish hisoblanadi.

Lean Production atamasi birinchi marta 1988 yilda Djon Krafzikuning Massachusetts texnologiya universitetidagi ilmiy ishiga asoslangan Lean ishlab chiqarish tantanasi(triumfi) nomli maqolasiga binoan paydo bo'lgan. Ishda u Koliforniyadagi Toyota kompaniyasi bo'linmasida sifat bo'yicha muhandis sifatidagi o'z ish tajribasiga tayangan.

Tejamkor ishlab chiqarish usuli - o'zida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, iste'molchilar xohish-istaklarini qondirishga yo'naltirilgan sifat menejmentini namoyon etuvchi innovatsion yondashuv.

Tejamkor ishlab chiqarishni joriy etish uchun ushbu tizim tamoyillarining mazmun-mohiyatini anglash zarur bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

yakuniy iste'molchi nuqtai nazaridan mahsulot qadr-qiymati yaratuvchisini aniqlash(iste'molchi uchun nima kerakligini aniq bilish);

mahsulotni ishlab chiqarish va yo'qotishlarni bartaraf etish zanjiridagi barcha zaruriy xatti-harakatlarni aniqlash(barcha xatti-harakatlarni buyurtmani olishdan to mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib bergunga qadar bo'lgan jarayonni ketma-ket tarzda izohlash);

ishlab chiqarish zanjiridagi xatti-harakatlarni ularning o'zida ishlar oqimi(kutishlar, to'xtashlar va boshqa yo'qotishlar yo'qligi)ni namoyon etishlari uchun qayta qurish;

yakuniy iste'molchiga zarur bo'ladigan xatti-harakatlar(faqat yakuniy iste'molchiga kerak bo'ladiganini qiling);

keraksiz xatti-harakatlarni doimiy qisqartirish hisobiga mukammallikka intilish(yo'qotishlarni topish va bartaraf etish hisobiga ishlarni doimiy takomillashtirish).

Shuni alohida ta'kidlab o'tish mumkinki, har qanday tashkilotda ishlar samaradorligini pasaytirishga olib keluvchi va yakuniy iste'molchiga hech qanday naf keltirmaydigan katta miqdordagi yo'qotishlar bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, "Tejamkor ishlab chiqarish" biznes jarayonlarini optimallashtirishda barcha xodimlarni jalb etishni va maksimal darajada bozorga mo'ljal olishni o'zida namoyon qiladi.

Zamonaviy tejamkor ishlab chiqarishning eng mashhur va ko'p qo'llaniladigan dastaklariga 5S, Andon, Kaizen, Muda, PDCA va boshqalarni misol qilish mumkin.

Ba'zan konsepsiyani yaxlit tarzda anglash uchun ushbu tizim elementlarining birining nomidan «JIT» (Just-in-time, «aniq - o'z muddatida - ishlab chiqarish»), «kaydzen»dan foydalanishadi.

Masalan, sifatni boshqarish bo'yicha buyuk amerika olimi U. Shuxart(1891-1967 yy.) birinchi bo'lib PDCA(rejalashtirish (Plan), amalga oshirish (Do), tekshirish (Check), ta'sir qilish (Act)) konsepsiyasini yaratdi (1939 y. «Sifatni boshqarishning statistik usullari» deb nomlangan monografiyasida). PDCA konsepsiyasini turli sohalarida samarali qo'llash o'z navbatida mazkur sohalar faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon berdi.

Sifatni boshqarish nazariyasi bo'yicha yana bir mashhur amerikalik olim - maslahatchi E. Deming(1900 – 1993 yy.) Shuxart siklini faol targ'ibot qildi va keyinchalik PDCA siklini PDSA("study" - o'rganish)ga modifikatsiya qildi va o'tgan asrning 50 yillarida Yaponiyada uni qo'llashni taklif qilib Kaydzen tizimini yaratishga muhim hissa qo'shdi.

Kaydzen (yap. 改善; kaydzen; Kaizen bu - ishlab chiqarish jarayonlarini, ishlanmalarni, yordamchi biznes-jarayonlarni va boshqaruvni, shuningdek, hayotning barcha jabhalarini to'xtovsiz takomillashtirib borishga yo'naltirilgan yapon falsafasi yoki amaliyotidir. Uning yaponchadan tarjima qilingandagi ma'nosi "to'xtovsiz takomillashtirish" yoki "yaxshi tomonga o'zgarishlar" degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, kaydzenning maqsadi-bu yo'qotishsiz ishlab chiqarish hisoblanadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligini isloh etish va boshqarish borasidagi muammolarni yechish borasida sezilarli hissa qo'shgan MDH olimlaridan A.Abolina, E.Byakov, B.Gongolo, Ye.Dobroves, A.Dronova, G.Ivanova,



L.Konyuxova, A.Kruglikova, O.Lavruxina, N.Maksimov, L.Chernyshov va boshqalarning nomlarini keltirib o'tish mumkin. O'zbekistonda ham uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining nazariy va amaliy jihatlarini V.Yodgarov, D.Butunov, I.Davletov, T.Xasanov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan. Lekin respublikamizda shu paytgacha tejamkor ishlab chiqarish usulini kommunal uy-joy xo'jaligi sohasiga joriy etish borasida ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, O'zbekiston milliy iqtisodiyoti o'zida yuzdan ortiq turli yo'nalishdagi moddiy ishlab chiqarish tarmoq va tarmoq osti tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarni namoyon etadi. Shunday sohalardan biri - bu uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidir. Ilmiy tilda ifodalaganda, uy-joy kommunal xo'jaligi - bu insonlar uchun qulayliklar yaratuvchi va ularning yashashlari uchun keng ko'lamdagi uy-joy xizmatlarini, masalan, uylar va boshqalar uchun suv ta'minoti, suv yetkazib berish, kapital ta'mirlash xizmatlarini taqdim etish yo'li orqali aholi punktlari inshootlarining turli muhandislik infratuzilmalari faoliyat yuritishini ta'minlovchi tarmoqlarosti majmuasidir.


Mazkur soha respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi sababi, mamlakat iqtisodiyotining kelgusi rivojlanishi aholi turmush darajasining oshishi bilan, demak, uy-joy kommunal sektorining rivojlanishi va aholining yashash sharoitlarining yaxshilanishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu soha aholining uy-joy kommunal xizmatlariga hamda sanoat korxonalarining esa ishlab chiqarish resurslari uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Aholi farovonligini ta'minlash, ularning yaxshi yashashlari uchun zaruriy shart- sharoitlar yaratish respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadidir. Bu borada uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etgan tarzda, sohani boshqarish va tartibga solishning rivojlangan mamlakatlar amaliyotida o'zini oqlagan zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini samarali joriy etish o'z navbatida aholi turmush darajasini oshirishga ijobiy ta'sir etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirish mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish yo'lida izchil sa'y-harakatlar ro'yobga chiqarilmoqda. Ammo hozircha sohada olib borilayotgan ishlar sifati bugungi davr talablariga to'liq javob bermayapti. Ayniqsa, aholi tomonidan to'lanadigan kommunal to'lovlar narxining doimiy ravishda oshib borish tendensiyasining kuzatilayotganligiga qaramasdan kommunal xizmat ko'rsatish xo'jaliklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining, shuningdek, sohada resurstejamkor va energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanish holatlarining talab darajasida emasligini ta'kidlab o'tish mumkin.

Resurslarni ilmiy boshqarish darajasini oshirishda innovatsion usullar va yondashuvlarni qo'llash bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda*16+. Bu uy-joy kommunal xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishning eng muhim zaxiralardan biri bo'lishi tasodifiy emas. Resurslar va zaxiralarni boshqarish- demak, innovatsion nuqtai nazardan ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan elektr, issiqlik, gaz resurslaridan, uy-joy kommunal xo'jaligidagi mehnat resurslaridan va boshqalardan samarali foydalanishdir.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib, uy-joy kommunal xo'jaligi xizmatlari bozorini takomillashtirish uchun bugungi kunda asosiy e'tibor innovatsion rivojlanishga qaratilishi lozim. Aynan innovatsion boshqaruv faoliyatining mavjud holati va undagi muammolar uy-joy kommunal xo'jaligini isloh etish sohasida paydo bo'lgan voqe'liklar haqida ob'ektiv mulohaza qilish imkonini beradi.

Oxirgi bir necha o'n yilliklarda O'zbekistonda aholi sonining o'sish sur'atlarining yuqoriligiga qaramasdan (mustaqillik yillarida o'sish 9,4 mln.kishidan ko'proqni tashkil etdi), aholining turar-joy bilan ta'minlanganligining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ziyod xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko'p xonadonli uylarga xizmat ko'rsatmoqda. Uy-joylarni, avvalo, ipoteka krediti asosida qurish va rekonstruksiya qilish ko'lami kengaymoqda. Bu o'tgan davr mobaynida aholi soni muttasil o'sib borishiga qaramasdan aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasini kishi boshiga 2015 yilda bir kishiga umumiy maydonning 12,4 kv.m to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich 15,4 kv.m gacha yetdi, ya'ni 1,2 karragacha o'sdi[14] (1-rasm).



1-rasm. 2015-2025 yillar uchun aholining turar-joy bilan ta'minlanganligi (1 yashovchiga uy-joy maydoni m²)

2015-2022 yillarda O'zbekistonda hammasi bo'lib 81493 ming kv.m turar-joylar foydalanishga topshirildi, shundan 59025 ming kv.m qishloq joylarga va 22468 ming kv.m shaharga to'g'ri keladi. 2015 yildan boshlab, 2022 yilgacha turar-joylarni ishga tushirish hajmi barqaror ijobiy dinamikaga ega bo'lib, 1,6 karragacha o'sdi, faqatgina 2023 yilda bu borada o'sish dinamikasida oldingi yilga nisbatan pasayish kuzatilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda turar-joylarni foydalanishga topshirish dinamikasi (ming kv. m)

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami mamlakat bo'yicha	7700	8900	9200	10400	10700	11300	12000	11293
Shahar	2600	2200	2300	2700	2700	3000	3500	3468
Qishloq	5100	6700	6900	7700	8000	8300	8500	7825

Izoh: barcha ko'rsatkichlar yaxlitlangan ko'rinishda berilgan.

Agar respublikamiz bo'yicha turar-joylarni foydalanishga topshirishda jamiga nisbatan shahar ulushi 2015 yilda 33,7 foiz bo'lgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023 yilda mos ravishda 30,7 foizga teng bo'lgan. Demak, shahar joylarida foydalanishga topshirilgan turar-joylarning umumiy hajmidagi ulushi o'tgan davr oralig'ida 3 foiz punktga kamaygan. Buning asosiy sababi oxirgi yillarda qishloq joylarida namunaviy uy-joylarning shaharga nisbatan ko'p qurilishidir. Shu bilan birga respublikamiz uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasining bugungi holatini tahlil qilish asosida tizimda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini ta'kidlagan holda ularni zudlik bilan hal etilishi lozim.

Uy-joy xo'jaligining tanazzul holati bugungi kunda davlatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Bu asosan uy-joy fondlarining eskirganligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun tariflarning shakllanishi, boshqaruvchi kompaniyalarning aholi oldidagi majburiyatlarining buzishlari, o'z vaqtida joriy va kapital ta'mirlarni amalga oshirish, avariya holatidagi uy-joylardan aholini ko'chirish kabi masalalardan iborat.

Masalan, joylardagi ijro hokimiyati organlari xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari faoliyatini yetarlicha muvofiqlashtirmayapti. Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish borasida kompleks yondashuvning yo'qligi aholiga sifatli va kafolatli kommunal xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga to'siq bo'lmoqda va uy-joy mulkdorlarining haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Ko'p xonadonli uy-joy fondini tegishli darajada saqlashni nazorat qilishning samarali tizimi tashkil etilmagan, ko'p hollarda uy-joy fondini texnik ekspluatatsiya qilish va unda aholining xavfsiz yashashi bo'yicha belgilangan talablar buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Bino va inshootlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarishga oid qoida va muddatlarga rioya etilmayapti, eski uylarni buzish bo'yicha ishlar olib borilmayapti, ko'p xonadonli uylarga tutash hududlarning holati sanitariya normalari, qoidalari va gigiena me'yorlariga to'liq javob bermaydi. Aholi sifatli ichimlik suvi va markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti bilan yetarli darajada ta'minlanmayapti.



Bundan tashqari so'nggi yillarda mamlakatimizda kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirish yo'lida izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan tahlillarning ko'rsatishicha, o'tgan davrda qabul qilingan bir qator qonunlar sohani rivojlantirishning huquqiy asosini to'la- to'kis ta'minlay olmayapti. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan davr uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini yanada - takomillashtirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 apreldagi "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-317-sonli farmoni sohada olib borilayotgan ishlarni tubdan yaxshilashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi hamda uning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hamda ularning tumanlar (shaharlar)dagi bo'limlari tashkil etildi.

Shuningdek, ushbu farmonda respublika aholisining sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan qamrab olinishini tubdan yaxshilash, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida barcha tashkilotlarning o'zaro hamkorligi uyg'unlashgan texnologik zanjirini shakllantirish asosida uy-joy fondidan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko'p xonadonli uylarning saqlanishi talablariga rioya etilishi ustidan texnik nazoratning samarali tizimini yaratish maqsadida qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

Mazkur vazifalardan biri sifatida "uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga oid me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi hisobga olingan holda, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish" belgilangan.

Ushbu nuqtai nazardan fikrimizcha, bugungi kunda ilg'or xorijiy mamlakatlar amaliyotida samarali qo'llanilib kelinayotgan tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, iste'molchilar xohish- istaklarini qondirishga yo'naltirilgan zamonaviy sifat menejmentini namoyon etuvchi innovatsion yondashuv ekanligini e'tiborga olgan holda ushbu boshqaruv usulining respublikamiz kommunal xizmat ko'rsatish sohasida, xususan, uy-joy fondini boshqarish va tartibga solish sohasida qo'llash maqsadga muvofiq.

Masalan, tejamkor ishlab chiqarish yondashuvini munitsipal sohasiga, xususan uy-joy kommunal sohasiga joriy etish masalasi ham xorijiy, ham Rossiya amaliyotida dolzarb va o'z tasdig'ini topgan.

Uy-joy kommunal sohasida tejamkor texnologiyalarni to'g'ri moslashtirish uchun xizmat ko'rsatishning ushbu sohasida jarayonlarning o'ziga xos quyidagi qirralarini ajratish muhim hisoblanadi:

- axborotlarning muhimligi va mazkur axborotlar to'liq, tushunarli va ishonchli bo'lishi;
- vazifalarning sezirali darajadagi turli xilligi; axborotlarni uzatishning ko'p sonli bosqichlari;
- samarali xizmatlar ko'rsatishdan keladigan yashirin foyda va zararlar; xizmatlar ko'rsatishni tezlashtirish uchun aniq-ravshan motivatsiyaning yo'qligi.

Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra xizmat ko'rsatish tashkilotlarida 30 foizdan 50 foizgacha bo'lgan sarf-xarajatlar – bu iste'molchilar istaklarini qondirish yoki qayta ishlashlar tezligining pastligi natijasidagi xarajatlardir[15].

Tahlillarga ko'ra bugungi kunda respublikamiz uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida to'plangan muammolarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- xususiy uy-joy kommunal xo'jaligi shirkatlarida, uy-joy fondini boshqarishda va umuman sohada bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritish tizimining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;

- sohada boshqaruvning iqtisodiy usullariga nisbatan ma'muriy usullarning ustunligi;

- xo'jalik yuritishda sarf-xarajatlarning yuqoriligi, xizmatlar ishlab chiqarish va ko'rsatish jarayonida energiya va resurslarni yo'qotish darajasining yuqoriligi;

- tariflarni shakllantirishda shaffoflikning yetishmasligi;

- xarajatlar sarfi borasida aholi xabardorligining talab darjasida emasligi;

- soha tashkilotlari investitsion jozibadorligining pastligi;

- aholining kommunal to'lovlar(issiq suv, sovuq suv, kommunal to'lovlar, elektr energiya, gaz va boshq.) borasidagi qarzdorligining oshib borayotganligi;

- kommunal to'lovlarni o'z vaqtida to'lash imkoniyatiga ega aholi orasida o'z vaqtida kommunal xizmat uchun to'lovlarni to'lamaydiganlar ulushining yuqoriligi;

- kommunal infratuzilma va umuman sohadagi asosiy fondlar eskirish (jismoniy va ma'naviy) darajasining yuqoriligi;

- xususiy uy-joy kommunal shirkatlari a'zolarining o'zini-o'zi boshqarish borasidagi loqaydliklarining yuqoriligi, ularda bozor sharoitida faoliyat yuritish borasida bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi;

- ko'rsatilgan kommunal xizmatlarni to'liq to'lashdan qochish (hisoblagichlarni o'rnatmasdan o'zboshimchalik bilan resurslardan foydalanish) holatlarining hamda aholi orasida beparvolik kayfiyatining saqlanib qolayotganligi va hokazolar.



Yuqorida keltirilgan ushbu muammolarni bartaraf etish o'z navbatida kompleks yondashuvni talab etadi. Buning uchun uy-joy kommunal xo'jaligining bozor munosabatlariga o'tishi, sohani isloh etishning umumiy yo'nalishiga va bosqichma-bosqich budjetdan moliyalashtirishdan voz kechish tartibining amaliyotga joriy etilishi natijasida sohada davlat va xususiy sektor sherikchiligi asosida uy-joy fondini boshqarish va tartibga solish tizimini takomillashtirish zarur bo'ladi. Bunda davlat, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, biznes vakillari va aholining o'zaro sherikchiligi asosida doimiy ravishda samarali hamkorligini yo'lga qo'yish zarur bo'ladi.

Uy-joy kommunal xizmatlar sifatini boshqarish o'zida iste'molchilarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xavfsizlik, ishonchlilik va texnik hamda sanitar talablarga mosligi ustidan davlat va ichki ishlab chiqarish tizimi nazoratini namoyon etadi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining muhim tarmoqlaridan biri - bu uy-joy fondi hisoblanadi. Uy-joy fondi - inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat bo'lgan fond [1] hisoblanadi. Uylarda joylashgan savdo, maishiy va nosanoat yo'nalishidagi o'zga ehtiyojlarga mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar uy-joy fondiga kirmaydi.

Uy-joy fondini boshqarish uy-joy fondini, muhandislik uskunalarini, shu uylarga tutash, obodonlashtirish elementlari bo'lgan yer uchastkalarini lozim darajada saqlashni, ularga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlashni hamda fuqarolarning yashashi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan boshqa faoliyatni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini boshqarish, xususiy uy-joy fondini boshqarish, ko'p kvartirali uyni boshqarish, shirkat tashkil etilgan ko'p kvartirali uyni boshqarish, shirkat tashkil etilmagan ko'p kvartirali uyni boshqarish shakllari mavjud bo'lib, ushbu boshqaruv shakllari bir-biridan farqli va o'ziga xos jihatlarga ega.

Aholiyashash shart-sharoitlarining yaxshilanishi ko'pjihtadan uy-joy fondidan foydalanish samaradorligining oshishidan, kommunal resurslarni yetkazib berish sifatining yaxshilanishidan, yangi zamonaviy resurs va energiyatejamkor jihozlarni o'rnatishdan, fanning yangi yutuqlarini amaliyotga joriy etish natijalariga bog'liq. Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish yoki aholining yashash shart-sharoitlarini yaxshilash ma'lum darajadagi ham davlat ham ko'chmas mulk egalari shaxsiy xarajatlari bilan bog'liq bo'lib ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- yuqori darajada eskirgan uy-joy fondlarini kapital ta'mirdan o'tkazish;
- uy-joy fondidan foydalanish davridagi sarf-xarajatlar qiymatini pasaytirish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha tashkilotlarning o'zaro hamkorlikdagi samarali aloqalarini o'rnatish;
- uy-joy kommunal xo'jaligi shirkatlari xodimlarining malakalarini oshirish va h.k.lar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tejamkor ishlab chiqarish avvalo, barcha xodimlarning o'z ijodiy salohiyatini namoyon etishlariga asoslanadi. Faoliyat yuritishda qattiq tartibga solishga yo'naltirilgan boshqa boshqaruv texnologiyalaridan farqli o'laroq ushbu yondashuv barcha darajalardagi xodimlarni optimallashtirish jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Lekin tejamkor ishlab chiqarish dastaklarini joriy etishdagi ko'pgina yutuqlar mavjudligiga qaramasdan, ushbu usullarni boshqaruv faoliyatiga doimiy ravishda joriy etishda o'z murakkabliklari mavjud bo'lib, buning uchun tejamkor ishlab chiqarish falsafasi avvalo korporativ madaniyat va tafakkur shakliga aylanishi lozim. Qachonki xodimlar fikrlashlarini tor texnologik vazifalardan ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy o'zaro aloqalarni anglashga qayta yo'naltira olgan taqdirdagina ushbu boshqaruv usuli uzoq muddatli istiqbolda samarali ishlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Fikrimizcha, respublikamizda uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasi joriy etish natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

- sohada faoliyat yurituvchi barcha xodimlar ongida resurslar(inson, moddiy, moliyaviy va vaqt)dan samarali va oqilona foydalanish madaniyati va ko'nikmalarini shakllantirishga;
- xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyat yuritishlari va uy-joy fondidan foydalanishning bozor talablariga mos keladigan institutsional jihatdan mukammal tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etishni maksimal darajada soddalashtirish va ortiqcha sarf-xarajatlarni bartaraf etish, shuningdek, kamroq vaqt oralig'ida ko'proq xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- uy-joy kommunal xizmat sohasi bo'yicha aholiga xizmat ko'rsatishni tashkil etishda uning sifat nazoratini o'z ichiga oladigan tizimli yondashuvni shakllantirish;



xizmat ko'rsatish sohasiga zamonaviy innovatsion va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali sohada innovatsion usullarning rivojlanishini ta'minlash va investorlar uchun maksimal darajada mumkin bo'lgan iste'mol qiymatini yaratish;

kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha tashkilotlarning o'zaro hamkorligining uyg'unlashgan texnologik zanjirini shakllantirish asosida uy-joy fondidan foydalanish tizimi samaradorligini oshirish;

uy-joy fondini ta'mirlashda "eng kam xarajatlar bilan aniq muddatida" tamoyiliga asoslangan tejamkor ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) tizimini yo'lga qo'yish.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak ilg'or xorijiy davlatlar tarmoq va sohalari amaliyotida samarali qo'llanib kelinayotgan tejamkor ishlab chiqarish konsepsiyasini respublikamiz kommunal xizmat ko'rsatish xo'jaligi, xususan uy-joy fondini boshqarish tizimi xo'jaliklari faoliyatiga muvaffaqiyatli joriy etish tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga muhim hissa bo'lib qo'shilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining uy-joy kodeksining 7 va 138 moddalari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017-sonli farmoni. 2017 yil 18 aprel.
3. Абдуллина, А. Р. Жилищно-коммунальное хозяйство в России // Молодой ученый *сайт+ URL: <http://www.moluch.ru /conf/econ/ archive/12/1433/>.
4. Аксенов П.Н. Информационные технологии в ЖКХ как инструмент повышения эффективности и результативности управления жилищно-коммунальным хозяйством города Москвы. – М.: Юго-Восток-сервис, 2009. – 243 с.
5. Вумек Д.П. Бережливое производство: как избавиться от потерь и добиться процветания вашей компании / Джеймс П. Вумек, Дэниел Т. Джонс; пер. с англ. *С. Турко+. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. – 471 с.
6. Доржиева Э.Л. Инновации в управлении корпорацией на основе внедрения концепции «Бережливого производства»// Вестник ИргТУ №7(78) 2013 с.158.
7. Зарубин, В.Н., Астахов, С.В. Инновационные методы управления проектами в строительстве на Lean и BIM технологий: учебно-методическое пособие/ В.Н.Зарубин, С.В. Астахов.-М.: Изд-во РАГС, 2001.-100с.
8. Имаи М. Гемба кайдзен: Путь к снижению затрат и повышению качества. М.: Альпина Бизнес Букс, 2014.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
